

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari	444
I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish	448
M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi	455
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova	
The structure of speech acts in various types of discourse	462
X.M.Sotvaldieva	
Paremiologiya fan sifatida	467
A.E.Botirova	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar.....	473
R.Radjabov	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar	478
M.N.Raxmanova	
Texnik oliy ta'lif muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari.....	482
U.B.Almaz, O.X.Barziyev	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar.....	486
D.Sh.Islomov	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida	493
M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lif yo'nalishi misolida).....	498
G.A.Saydaliyeva	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
G.N.Isakova	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
J.J.Egamberdiyev	
Lug'at zamon va davr elchisi.....	511
Sh.Sh.Zarmasov	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili.....	515
G.P.Nazarova, F.B.Alimova	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazionalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
S.A.Mannonova	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari	526
N.K.Ergasheva	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context	529
A.K.Usmonov	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari	533
N.K.Abbasova	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms	538
D.G.O'rinoiboyeva	
Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar	542
N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашуро娃	
Когнитивный подход к анализу художественного текста	550



УО'К: 81'44:130.122[=512.133/=111]

**HIS-TUYG'UNING PAYDO BO'LISHI, UNING ASOSIY HOLATLARI PSIXOLOG OLIM
KERROLL ELLIS IZARD TALQINIDA**

**ВОЗНИКОВЕНИЕ ЭМОЦИЙ, ИХ ОСНОВНЫЕ СОСТОЯНИЯ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ
ПСИХОЛОГА КЭРОЛЛА ЭЛЛИСА ИЗАРДА**

**THE EMERGENCE OF EMOTION, ITS MAIN STATES AS INTERPRETED BY
PSYCHOLOGIST CARROLL ELLIS IZARD**

Islomov Dilshod Shomurodovich
Buxoro davlat universiteti, f.f.f.d., (PhD)
ORCID ID 0000-0001-8793-8031

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaxsning vogelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalari, his-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy shakllari va holatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, bu borada olimlarning ilmiy qarashlari keltirilgan. His-tuyg'uning emotsiya, effekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress holati) kabi turli shakllarga bo'linishi hamda shaxsning emotsiyal-ekspressiv sohasini tashkil etishi, inson xulq-atvorini tartibga solishi, bilishning jonli manba sifatida odamlar o'tasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarning ifodasi ekanligi xususida fikr-mulohazalar o'rganilgan va ularga munosabat bildirilgan.

Аннотация

В данной статье приводятся сведения о переживаниях человека, возникающих из-за его отношения к вещам и событиям в действительности, к людям и к самому себе - возникновение эмоций, их основные формы и условия, а также научные взгляды ученых на этот счет. Представление о том, что чувство разделяется на различные формы, такие как эмоция, действие, настроение, сильное возбуждение (стрессовое состояние) и организует эмоционально-выразительную сферу человека, регулирует поведение человека, является выражением сложных и многогранных отношений между людьми как живой источник знаний. - комментарии изучались и на них реагировали.

Abstract

This article provides information about the experiences of a person, the emergence of feelings, their main forms and situations, arising from the relationship to things and events in reality, to people and to oneself, as well as the scientific views of scientists in this regard. An opinion about the division of feelings into different forms such as emotion, effect, mood, strong excitement (stress state) and the organization of the emotional-expressive sphere of a person, the regulation of human behavior, the expression of complex and multifaceted relations between people as a living source of knowledge. - comments were studied and reacted to.

Kalit so'zlar: his-tuyg'u, emotsiya, effekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish, stress holati, aql, idrok, shaxs, ichki munosabat, quvonch, qayg'u, xulq-atvor, qiziqish, quvonch, hayratlanish, iztirob chekish, g'azablanish, nafratlanish, jirkhanish, qo'rquv, neyrofiziologik, ekspressiv, subyektiv daraja, evolyutsion biologik jarayonlar, emotsiyal-ekspressiv.

Ключевые слова: чувство, эмоция, эффект, настроение, сильное возбуждение, стрессовое состояние, сознание, восприятие, личность, отношение, радость, печаль, отношение, интерес, радость, удовлетворение, огорчение, гнев, отвращение, отторжение, страх, нейрофизиологический, экспрессивный, субъективный уровень, эволюционно-биологические процессы, эмоционально-выразительный.

Key words: feeling, emotion, effect, mood, intense excitement, stress state, mind, perception, personality, attitude, joy, sadness, attitude, interest, joy, surprise, distress, anger, disgust, disgust, fear, neurophysiological, expressive, subjective level, evolutionary biological processes, emotional-expressive.

KIRISH

Shaxsning vogelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalari – his-tuyg'ularning paydo bo'lishi, inson tafakkur qilishi, anglashi, idrok qilishi, xotirlashi va fikrashi jarayonida borliqni bilibgina qolmay, hayotda sodir bo'layotgan har qanday voqeal-hodisalarga o'z ichki munosabatini namoyon qiladi. Ichki munosabatni bildirish jarayonida insonda turli xildagi his-tuyg'ularning paydo bo'lishi, qolaversa,

bunday ichki munosabatning manbasi inson faoliyati va turli xildagi holatlarga bo'ladigan munosabati his-tuyg'uni paydo qiladi, o'zgartirib boradi, barqarorlashtiradi yoki yuqolib borishiga sababchi bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, jahoning juda ko'plab psixolog olimlari Geraklit, Demokrit, Aflatun, Arastularning ta'limotlari, fransuz olimi Dekart, ingliz olimi Gobbs, niderlandiyalik olim Spinoza, nemis mutafakkiri Leybnis, ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk, ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi, rus olimi I.P.Pavlov va rus psixolog N.N.Ladigina-Kots, eksperimental metodist G.Fexner, buyuk tabiatshunos Ch.Darvin, amerikalik olimlar G.Xarlou, M.Xarlou, S.Suomi, S.Xoll, nemis psixologi V.Shtern, biogenetik qonunshunoslar F.Myuller va E.Gekkellarning ilmiy nazariyalari, shuningdek, Sharqda ilk psixologik qarashlarning paydo bo'lishida hissa qo'shgan Al-Xorazmiy, Al-Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek singari buyuk mutafakkirlar, E.G'oziyev, G'.Shoumarov, V.Karimova, B.Qodirov, A.Jabborov, Z.Ravshanova, Sh.Barotov kabi qator psixolog olimlarning psixologiya fanining turli sohalarida qo'shgan hissalarini e'tiborga molik.

Aytaylik, inson hayotida quvonchli voqeanning sodir bo'lishi, *dunyodagi* eng kuchli universitetlar reytingidan o'rinni olgan oliyohga o'qishga kirishi, yuqori lavozimlarda tayinlanishi, farzandli bo'lishi, atrofidagi yaqin bir kishisini yuqotishi, unga nisbatan bo'ladigan adolatsizlik natijasida insonda sodir bo'ladigan nafratlanish kabi inson ichki holatlari ham his-tuyg'uga kiradi.

His-tuyg'uni boshdan kechirish jarayonida emotsiya, effekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress holati) kabi turli shakllarini ko'rish mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ehtiros so'zini tor ma'nodagi so'z bilan aytadigan bo'lsak, "His-tuyg'ular – shaxsning emotisional-ekspressiv tomonini tashkil etadi, inson xulq-atvorini tartibga solib turadi, bilishning jonli manba sifatida odamlar o'rta sidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Inson his-tuyg'ularining xursandchilik, achanish va stress kabi holatlarga tushishi natijasida nutq orqali tashqariga katta bosim yoki portlab chiqishi affektlarni yuzaga keltiradi. Affektlar psixologiya, fonostilistika va fonopsixologiya kabi fan va sohalarni bir-biriga bog'lovchi asosiy hissiy holatdir" [1].

Masalan: "**Shum bola**" nomli o'zbek filmida xizmatkor bolaning boy otani oldiga kelishi va uning o'g'li daraxtdan yiqilib vafot etganligi to'g'risidagi yolg'on xabarni yetkazilishi natijasida boy otaning stressga tushishi oqibatida "**Voy jigariiiiiim, voy jigariiiiiim**" deb baqirishi affektlarni yuzaga keltiradi.

Differensial hissiyotlar nazariyasini yaratuvchilardan biri bo'lgan Kerroll Ellis Izardning fikricha: "Har bir his-tuyg'u o'zining psixologik ta'riflari va tashqi ko'rinishlariga ega bo'lgan quyidagicha asosiy hissiy holatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin" [2].

Mazkur mezonlarga muvofiq, ingliz psixolog olimi Kerroll Ellis Izard inson motivatsion tizimining asosini tashkil etuvchi 10 ta asosiy his-tuyg'ularni aniqlaydi. Ushbu o'nta asosiy differensial his-tuyg'ularning o'zaro ta'siri va kombinatsiyasining turli jarayonlari boshqa barcha insoniy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Mazkur olim hatto chaqaloqlar ham ba'zi asosiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishlari mumkinligini ta'kidladi[3]. Mazkur 10 ta asosiy his-tuyg'ularni quyidagi jadvalda yaqqol ko'rish mumkin.



Qiziqish (emotsiya tarzida) – malaka va ko'nikmalarning rivojlanishida, ta'lif olishga moyillik tug'diradigan bilimlarni egallahsha yordam beradigan ijobjiy hissiy holatdir.

Uyonch – hali beri qondirilishi mumkin bo'lmagan yoki har holda qondirilishi noaniq bo'lgan dolzarb ehtiyojning yetarli darajada to'la qondirilgan bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq ijobjiy hissiy holatdir.

Hayratlanish – to'satdan ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta'sirlanishning ijobjiy yoki salbiy jihatdan aniq-ravshan ifoda etilmagan belgisidir. Hayratlanish diqqat-e'tiborni o'ziga tortgan obyektga qaratilgan holda barcha oldingi hissiyotlarni tormozlantirib qiziqish tusini olishi mumkin.

Iztirob chekish – hozirga qadar qondirilish ehtimoli ozmi-ko'pmi darajada mavjud, deb tasavvur qilib kelingan hayotiy muhim ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi haqida aniq yoki shunday tuyulgan axborot olinishi bilan bog'liq salbiy hissiy holatdir. U ko'pincha hissiy zo'riqish (stress) shaklida boshdan kechiriladi. Iztirob chekish astenik hissiyotlar (kishini bo'shashtiradigan) tusida bo'ladi.

G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida xizmatkor bolaning boy otani oldiga kelishi va uning o'g'li daraxtdan yiqilib vafot etganligi to'g'risidagi yolg'on xabarni yetkazilishi natijasida boy otaning stresga tushishi hamda **Voy jigariiiiiim, voy jigariiiiiim** deb baqirishi iztirob chekish holatiga misol bo'l oladi.

G'azablanish – odatda affekt tarzida kechadigan va subyekt uchun g'oyat muhim ehtiyojni qondirish borasida jiddiy to'siq paydo bo'lgani oqibatida kelib chiqadigan, ifodalanishiga ko'ra salbiy tarzdagi hissiy holatdir.

"Shum bola" nomli o'zbek filmida boy otaning xizmatkor bolaga qarata "Tur-e padaringga la'nat" deb aytishi g'azablanish holatiga misol bo'ladi.

Iztirob chekishtan farqli o'laroq, g'azablanish stenik tusda bo'ladi (ya'ni, garchand qisqa muddatli bo'lsa ham, hayotiy kuch-g'ayratlarni oshirib yuboradi).

Nafratlanish – obyektlar (narsalar, odamlar, holatlar va boshqalar)ga yaqinlashish (jismonan birgalikda harakat qilish, munosabat jarayonida aloqa bog'lash va shu kabilar) subyektning mafkuraviy, ma'naviy yoki estetik prinsiplari va yo'l-yo'riqlariga keskin zid kelib qolishi oqibatida ro'y beradigan salbiy hissiy holatdir. Nafratlanish, agar u g'azablanish bilan qo'shilib ketadigan bo'lsa, shaxslararo munosabatlarda hujum g'azablanishni sabab qilib, nafratlanishga esa "biron kishidan yoki biror narsadan qutilish" istagini bahona qilib ko'rsatiladigan tajovuzkor xulq-atvorga sabab bo'lishi mumkin.

Jirkamish – shaxslararo munosabatlarda ro'y beradigan va subyektning hayotiy nuqtayi nazarlari, qarashlari va xulq-atvoriga nomutanosibligi oqibatida hosil bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. Keyingilari subyektning nazarida yaramas, taomildagi ma'naviy qoidalarga va estetik mezonlarga mos kelmaydigan bo'lib tuyuladi.

Qo'rquv – subyekt o'zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi haqida, unga real tarzda tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo'lgan xavf-xatar haqidagi xabarni olishi bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. Eng muhim ehtiyojlari bevosita siqilishi natijasida

ro'y beradigan iztirob chekish hissiyotidan farqli o'laroq, kishi qo'rquv hissiyotiga berilganda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini faqat ehtimoliy tarzda bo'ladi va ushbu (ko'pincha yetaricha ishonarli bo'limgan yoki bo'rttirib yuborilgan) prognozga binoan harakat qiladi. Shu o'rinda "Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi" degan xalq maqolini eslatish mumkin. Qo'rquv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham bo'lishi ("Qo'rqqanidan oyoqlari qaltrardi"), yoxud hissiy zo'riqishlar tarzida, yohud ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va havotirlangan tarzda, yoxud affektiv holatga tushgan tarzda (dahshatli qo'rquv hissiyotning eng so'nggi turidir) kechishi mumkin.

Uyalish – o'zining niyat maqsadlari, hatti-harakatlari va tashqi qiyofasi faqat tevarak-atrofdagilar tomonidan kutilganicha mos kelmaganligini emas, balki o'ziga loyiq xulq-atvor va tashqi qiyofa haqidagi shaxsiy tasavvurlarga ham mos kelmayotganini anglab yetishida ifodalanadigan salbiy holatdir.

Manbalarga tayanib qisqa xulosa qiladigan bo'lsak, hissiyotlarning differentsial nazariyasi muallifi, ingliz psixolog olimi Kerroll Ellis Izard hissiyotlarni evolyutsion biologik jarayonlar natijasida vujudga kelgan uchta asosiy farqlanishini, ya'ni **neyrofiziologik, ekspressiv, subyektiv** darajalarini aniqlaydi:

1. Neyrofiziologik substrat;
2. Ekspressiv komponent (yuz ifodalari va pantomima);
3. Inson boshdan kechirayotgan tajribaning o'ziga xosligi.

Demak, his-tuyg'u inson xulq-atvoriga xos bo'lgan xususiyatlardan biri hisoblanib, har bir shaxsning hayotda sodir bo'layotgan har qanday voqeа-hodisalarga o'z ichki munosabatini bildirishi natijasida namoyon bo'ladi.

His-tuyg'u inson ruhiy holatining mahsulidir. Bundan ko'rinish turibdiki, insonning aqliy salohiyati rivojlanishi natijasida anglash, idrok qilish, tafakkuri, xotirlash kabi qobiliyatlarning ham yuzaga kelishini ta'minlaydi.

XULOSA

Inson ruhiy holati, his-tuyg'ulari borasida jahon va o'zbek psixolog olimlari – ingliz psixolog olimi Kerroll Ellis Izard hamda o'zbek psixolog olimi, professori Sh.R.Barofovning fikrlariga hamfikrmiz. Xususan, ingliz psixolog olimi Kerroll Ellis Izardning inson motivatsion tizimining asosini tashkil etuvchi **quvonch, qiziqish, ajablanish, qayg'u, g'azab, jirkanish, nafrat, qo'rquv, uyat, aybdorlik** kabi 10 ta asosiy his-tuyg'ularni aniqlashi tilshunoslik, psixologiya, fonostilistika sohalarida buyuk kashfiyat bo'lganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, fonostilistikadagi **quvonch, qiziqish, ajablanish, qayg'u, g'azab, jirkanish, nafrat, qo'rquv, uyat, aybdorlik** kabi diskurslarning aslida psixologiya sohasida salmoqli ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mashhur, ingliz psixolog olimning inson motivatsion tizimining asosini tashkil etuvchi 10 ta asosiy his-tuyg'ular va holatlar ekanligi psixologyaning tilshunoslik bilan, xususan, psixolingvistika, ayniqsa, fonostilistika bilan bevosita bog'liqligini yaqqol ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.R.Barofov. "Psixologiya nazariyasi va tarixi" Toshkent 2019. Bet 396-398
2. Kerroll E Izard "Tuyg'ular psixologiyasi". – Moskva, 1991. – B.50-55.
3. Kerroll E Izard "Inson tuyg'ulari" Tarjima. ingliz tilidan tomonidan tahrirlangan L. Ya. Gozman, M. S. Egorova. – M.: Moskva davlat universiteti nashriyoti, 1980. – B. 439.
4. Islomov, D. Sh. "The Definition of The Concepts of "Phoneme" and "Phonostylistics" Middle European Scientific Bulletin 9.4 (2021).
5. Islomov, D. (2023). On phonetics, phonostylistics and phonetic means. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 28(28). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8800.
6. D.Sh.Islomov. "SIMILARITY ASPECTS OF UZBEK AND FRENCH PHONETICS". International Multidisciplinary Journal for Research & Development, vol. 10, no. 10, Nov. 2023, <https://www.ijmrdr.in/index.php/ijmrdr/article/view/253>.
7. D.Sh.Islomov. (2023). THE ARTICULATION OF SOUNDS IN FRENCH. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(10). Retrieved from <https://www.ijmrdr.in/index.php/ijmrdr/article/view/251>
8. D.Sh.Islomov. (2023). THE DIFFERENTIATION ASPECTS OF UZBEK AND FRENCH PHONETICS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 47–51. Retrieved from <http://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/424/>
9. Islomov, D. (2023). About Alliteration in French. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 28(28). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8798/
10. Islomov, D. S. "The role of sonors in enhancing phonetic resonance and melody in uzbek poetry." International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding. Vol. 1. No. 1. 2022.

TILSHUNOSLIK

11. Islomov, D. "ЖИЗНЬ АБДУЛЛЫ КАДИРИ И ЕГО ВКЛАД В УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz) 6.2 (2021).

12. Islomov, D. (2022). Француз тили фонетикаси Француз тили фонетикасининг ўзига хос жиҳатлари: Француз тили фонетикасининг ўзига хос жиҳатлари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4108.

13. Islomov, D. (2021). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПОНЯТИЯ ФОНЕМЫ И ФОНОСТИЛИСТИКИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от https:// journal. buxdu.uz /index.php /journals_buxdu /article/view/560.